

ZULFIYA SHE`RIYATIDA BADIYY OLAM TALQINI

Ashurova Charos Jamoliddin qizi

*Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti
O`zbek tili va adabiyoti fakulteti.
ashirovacharos880@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada shoira she`riyati haqida ma`lumot beriladi. Shoira Zulfiya she`rlarining mavzu ko`lami, obrazlar olami tahlil qilinadi. Shu ma`noda, Zulfiya ijodining haroratini ta`minlagan omil ham undagi jo`shqin va faol insonparvarlik, poetik timsol, go`zal tuyg`ular olamidir. Maqolada shoira she`riyatining aynan shu jihatlari o`z ifodasini ttopgan.*

Kalit so`zlar: *Zulfiya, lirik kechinma, qahramon tabiati, poetik timsol, mavzu, g`oya.*

Dipnot *Bu makalede şairin şiirleri hakkında bilgi verilmektedir. Şair Zülfiye'nin şiirlerinin tema kapsamı ve imge dünyası incelenmiştir. Bu anlamda Zulfia'nın eserinin sıcaklığını sağlayan unsur onun coşkulu ve aktif insancılığı, şiirsel imajı ve güzel duygu dünyasıdır. Makalede şairin şiirinin bu yönleri dile getirilmiştir.*

Anahtar kelimeler: *Zulfiya, lirik deneyim, kahraman doğası, şiirsel görüntü, ders, fikir*

Аннотация *В этой статье речь пойдет о поэтической поэзии. Будет проанализирован тематический охват и мир образов поэтических стихотворений Зулфийи. В этом смысле фактором, который повлиял на температуру творчества Зулфийи, является ее мир энтузиазма и активного гуманизма, поэтического символизма и прекрасных чувств. В статье излагаются те же аспекты поэтической поэзии.*

Ключевые слова: *Зульфийа, лирический вечер, характер героя, поэтический логотип, тема, идея.*

KIRISH

Har bir badiiy asar ijtimoiy-ma`rifiy tushunchalarni nozik sezimlar bilan idroklaydi. Shaxsiy tushuncha tadrijida poetik yaxlitlik matn hissiy-ruhiy asoslari bilan o`zaro raqobatga kirishadi. Shu boisdan, biz shoirlarni ko`ngil tarjimoni deb sifat beramiz. Shoira Zulfiya ijodining poetik olami va estetik qarashlari ham mazkur jarayonning bir halqasini tashkil etadi. Negaki, ijodkor o`z davrining komil farzandi.

Shoira ijodini kuzatar ekansiz, bitta muhim jihat kishi e`tiborini o`ziga jalb qiladi. U ham bo`lsa falsafiy-intellektuallikdir. Bu muhim qirraning shoira ijodidagi rang-barang ko`rinishlari lirik va epik asarlarida go`zal mohiyatni yuzaga keltirgan. Ma`lumki, Zulfiya tomonidan yaratilgan asarlarida realistik tasvir tamoyillari kuchayganligi hamda poetik obrazlar olami kengayganligini ko`rsatadi. Shu bilan birga, Zulfiya ijodida kuzatiladigan voqelikka yangicha estetik nuqtai nazardan yondashish tamoyillari, insonparvarlik, falsafiylik, obrazlardagi fikrlashlar o`ziga xosligi bilan belgilanishini e`tirof etganlar.

Zulfiya she`riyatiga razm tashlar ekansiz ruhiy va hissiy ta`sirchanligi, mushohada va ifoda tarzining o`ziga xosligi bilan ajralib turadi. Xususan, shoira ijodining umumbashariyligi va zamonaviyligini, asarlarida sadoqat va vafo singari insoniylikning bosh mezoniga ko`tarilganligini kashf etish hamon dolzarbdir. Zulfiyaning yana bir muruvvati yangi davr ayollar she`riyati mahsharida turib XX asr o`zbek adabiyotining ayol shoiralari san`at ya`ni

poetik maktabini yaratdi. Shu o`rinda aytish joizki, H.Xudoyberdiya, O.Hojiyeva, E.Oxunova singari ko`plar shoirlarimiz Zulfiya ijodining davomchilari sanaladi.

ASOSIY QISM

Zulfiya she`rlarining el aro mashhurligi tasodifiy emas, bil`aks , u bolaligidan olamga hayrat ko`zi bilan qarovchi, uning o`zgalar ko`rolmaydigan jihatlarni ilg`ovchi qizaloq bo`lganligi bilan ajralib turardi. Ma`lumki, oilasidagi muhit ham yosh Zulfiyada badiiy ijodga ishtiyoqni anglatardi. Zulfiya butun o`zbek ayollari,onalari,barcha ma`shuqalarga xos ayol sifatida tan olinadi, undagi sadoqat,vafo, mardonavorlik, sabrlilik singari tuyg`ularning barchasi mujassam ekanligi barcha o`zbek ayollariga ayon. Shoiraning she`rlarini o`qir ekansiz undagi teran ma`no,qalb go`zaligi,insoniy tuyg`ular, bilimdoni bo`lib, turli janrlarda q1`SW asarlar yaratgan: dostonlar, balladalar, nasriy she`rlar, hikoyalar, ocherklar, publististik maqolalar va gazeta xabarlar. Uning ko`pgina she`rlari SSR xalqlari tinchligi va do`stligi sari kurashga bag`ishlangan edi. Shoira Zulfiya go`zal hayotning muayyan tomonini badiiy tadqiq qilar ekan, u asosiy e`tiborini inson qalbidagi kechayotgan ziddiyatlar, tuyg`ular tovlanishini ifodalashga qaratadi. Shu jihatlari bilan shoira Zulfiya H.Olimjon she`rlaridagi ba`zi poetik ifodalarni lirik tasvir yo`nalishiga singdirib yuboradi:

Ko`zim tushdi olma guliga,
Dedim, taqsam eng go`zal birin-
So`ylab bersa... mening chakkamda,
Dilbarligin, go`zallik sirin

Tabiat go`zalliklaridan behad chuqur hayajonga tushush, o`z tuyg`ularini tabiatdagi tovlanishlar surati orqali berish Zulfiya ijodiga xos xususiyatlardan biridir. Fikr bilan tuyg`u uyg`unligiga inson umrining abadiylikka daxldorligi mohiyatini ochadi:

“Qani men kelganda kulib qarshilab,
Qo`shig`I mavjlanib bir daryo oqqan?
“Baxtim bormi deya, yakkash so`roqlab”
Meni she`rga o`rab, suqlanib boqqan?”

Zulfiya mahoratidagi bunday o`ziga xoslik uning tasvir ob`ektini yangicha badiiy tadqiq etishi,u haqida yangicha fikrlashga intilishi natijasidir. Shuning uchun ham Zulfiya an`anaviy obrazlar qa`ridan yangi-yangi ma`nolar izlaydi. Shoira Zulfiya ijodining poetik olami va estetik qarashlari mazkur jarayonning bir halqasini tashkil qiladi. Negaki, ijodkor o`z davrining komil farzandi. Ustozlari boshlab bergan salmoqli ishlar, keying avlod nazaridan izsiz o`tmaydi. Bularni davom ettirganimiz uchun bugungi adabiy jarayon o`ziga kerakli va muhim jihatlardan ibrat olishda davom etmoqda. Shoira bir dam bo`lsa ham o`quvchi oldidagi samimiyatni pinhon tutmaydi, aksincha ro`y-rost izhor qilishni maqsad qiladi. Shoira Zulfiyaning "Salom tansiq bahor" she`rida bahor mavzusiga bag`ishlangan she`rida o'z lirik qahramonining ma'naviy dunyosini tabiat manzaralari tasviri poetik timsollar orqali kengroq yoritib bera olganligini ko`rishimiz mumkin:

Yana ko`k tubida sayraydi qqushla,
Yana yerda ko`hna yam-yashil ko`rpa.
Yana tandan ketdi mudrashu tushlar,
Yana yoshday dilda o'ylar ming turfa.

Shu o`rinda, inson qalbi va tabiat tovlanishlarining ma`nosi nozik kuzatishlar va

teran falsafiy umumlashmalar uchun katta imkoniyat yaratganini ko'rish mumkin. Vaholanki, shoira Zulfiya ijodida ona va farzand muhabbatini, ayollikning botiniy va zohiriy qiyofasini ochib beruvchi lirik kechinmalar talaygina.

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, Zulfiyaxonim o'zbek she'riyatida o'ziga xos o'ringa ega shoira bo'lishi bilan birga inson sifatida ham shu xalqning barcha olijanob xislatlariga ega ayol bo'lgan. Bugun shu maqolani yozish va Zulfiyaxonimni ijodiga chuqurroq nazar solish orqali yana bir karra amin bo'ldimki, o'zbek adabiyoti XX asrda har qancha ziddiyatli, mashaqqatli va murakkab yo'lni bosib o'tgan bo'lmasin, unda bir qator tom ma'nodagi ijodkorlar etishib chiqqan va ularni ichidagi porloq yuzluzlardan biri bu Zulfiyaxonim bo'lgan. Bugungi istiqloq kunlarida ularning ijodlari yangi qirralari bilan namoyon bo'lmoqda. Zulfiyaxonimning hayoti va ijodi barcha xotin-qizlar uchun ibrat. Negaki, uning hayotidagi mehnatsevarligi, doimo olg'a intilishi, sevgi bobida sadoqatli yor ekanligi, badiiy ijod borasida tinimsiz izlanuvchanligi hamda hayot qiyinchiliklarida esankiramasligi, erishilgan yutuqlar oldida o'zini yo'qotmasligi har qanday qiz yoki ayol qalbida havas uyg'otadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zulfiya. Adabiy o'ylar - Toshkent: "Fan", 1985
2. Zulfiya. Tong bilan shom aro. Saylanma. - Toshkent: Sharq, 2006. 168-b.
3. Karimov N. Zulfiya. Ma'rifiy biografik asar. - T. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2015
4. Mahmudova D. Halima. esse-qissa. Toshkent, "O'zbekiston", 2016
5. Hojjeva O. To'rt tanho. Toshkent, "O'zbekiston" 2013
6. Umurova G. (2014). Shoira Zulfiyaning badiiy olami. Monografiya. - Toshkent, "Navro'z", 156 b.
7. Umurova G. (2018) Zulfiya lirikasida tuyg'ular tadriji // Xorijiy filologiya. - Samarqand, 4(4), B, 83-88
8. G'afurov I. Zulfiya siymosi // Sharq yulduzi, 2015, N1. - B. 114-120.